

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI.

Murodova Hilola Umarqulovna

khilolamurodova08@gmail.com

“Buxoro davlat texnika universiteti”

Gidrlogiya va ekologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Aslonova Muhabbat Qobil qizi

aslonovamuhabbat39@gmail.com

“Buxoro davlat texnika universiteti”

Gidrologiya va ekologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Anatatsiya. XXI-asr turizm asri bo‘ladi deb mutaxassislar tomonidan bashorat qilinmoqda. Shunday ekan turizmni rivojlantirishga extiyoj oshishi sabab bu sahani o‘rganib, tahlil qilib qilinishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni ko‘rish lozim. Turizm XXI-asrda jahon iqtisodiyotiga juda katta ijobiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy soha bo‘lib kirib keldi. “Buxoro viloyati turizm resurslarida, ichki turizmni rivojlantirishda foydalanish yllari” mavzusi hozirgi kunda juda bir ahamiyatli vazifa bo‘lib turibdi. Buning natijasida qanchadan-qancha resurslarni qayta tiklash, ular safini kengaytirish, byudjetga pul oqimlarini ko‘paytirish mumkin. XXI-asrda turizm o‘zining salmoqli hissasi bilan respublika budjetida katta o‘rin egallashi kutilmoqda. Bunga respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli.

Kalit so‘zlar. Turizm, ekskursiya faoliyati, turistik industriya, tur, antropogen, infratuzilma, investisiya, mentalitet, golf maydoni.

Kirish. Tabiatdan foydalanishning ekologik (tabiiy) va iqtisodiy samaradorligi o‘zaro bog‘liq va bir-birlarini taqozo etishi bilan tavsiflanadi. Tabiatda komponentlar orasida o‘zaro barqaror muvozanat mavjud bo‘lsa, noxush tabiiy va antropogen jarayonlar rivojlanishi muntazam boshqarilsa, resurslardan foydalanish oqilona amalga oshirilsa, tiklanadigan boyliklarni ularning foydalanish darajasiga qarab sun’iy ravishda tiklash ishlari maromida bajarilsa, umuman olganda, tabiatni muxofaza qilish va boyliklardan foydalanish ilmiy asosda boshqariladigan tabiat majmualarida amalga oshirilsa, ekologik samaradorlikka erishiladi.

O‘zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo‘lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir. Ichki turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

Mavzuning dolzarbligi. Turizm, bu mintaqalarda ishga oid faollikka yordam beradi, jamoat ishlab chiqarishida band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini jalb qiladi, mehnatni tatbiq qilish sohasini kengaytiradi. Turizm sohasida hamkorlik qilish iqtisodiyotning rivojlanishini faollashtiradi, mintaqaviy resurslardan samarali foydalanishga hamda xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining malakasini oshirishga yordam beradi. Ichki turizmni rivojlantirishdagi turizm sohasidagi korxonalar, ishning predmeti esa ushbu korxonalardan turizm maqsadida foydalanish yo'nalishlaridir. Buxoroda ichki turizm sohasida bundanda yuqori cho'qqilarga erishishi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashda O'zbekiston turizm sohasining asosiy maqsadi bo'lib, ish o'rinlari soni, soliq tushumlari, chet el valyutasi oqimini ko'paytirish hisobiga turizmning Yalpi Milliy mahsulotga va Milliy Iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo'shishini ta'minlaydigan raqobatbardosh turistik bozorini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlari borasida tahlillarni amalga oshirish hisoblanadi. Bundan tashqari, ichki turizmning infratuzilmasini rivojlantirish, ularga nisbatan ma'lum standartlar joriy etish, xizmat ko'rsatish sohasini yanada yaxshilash masalalari oldimizda turibdi. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish borasida davlat olib borayotgan va qilishi zarur bo'lgan ishlar o'rganilib chiqilgan. Ma'lumki, dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi turizm sohasini rivojlantirish bilan o'z milliy iqtisodiyotini taraqqiy ettirmoqda. Hozirgi kunda, turizm dunyo bo'yicha eng ko'p daromad keltiradigan sohalardan biriga aylangan. Bundan tashqari, turizm mamlakatlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni yanada barqarorlashtirishning eng muhim hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz turizm sohasida yetarlicha darajada va har qanday xorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Mustaqil o'lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e'tirof etilishi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro do'stona munosabatlarning yanada barqarorlashib borishi, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishi, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi.

Jahon Sayohat va Turizm Kengashi (BSTK) ning Sayohat va Turizmning O'zbekistonga iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri to'g'risida tayyorlagan ma'lumotiga qarasa, 2015 yilda Turizmning YalM dagi ulushi 3,2%(5,490 mlrd so'm)ni tashkil etgan. Ish bilan bandlik darajasiga qaraydigan bo'lsak 2015 yilda Sayohat va Turizmning O'zbekistonga iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri orqali umumiy bandlik nisbatida

2,8%ni tashkil etdi (439500 ish o'rnini). Ushbu raqamlar Turizm-turli xil faoliyat va xizmatlarning murakkab majmui ekanligini isbotlab beradi. Ular hududiy va global darajadagi son-sanoqsiz o'zaro aloqalar bilan uyg'unlashib ketadi. Bu aloqalar boshqa ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni qamrab oladi. Turizm yordamida muayyan foyda, eng avvalo, iqtisodiy foyda ko'rishga qaratilgan strategiya ekologik va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun bozor mexanizmlaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Ana shu jihatdan ekoturizmning asosiy mohiyati, ya'ni birinchi navbatda xususiy firmalardan foydalanish ko'zda tutiladi. Uning asosiy maqsadi va ayni paytda faoliyat yuritish shartlari raqobatbardoshlikni va iqtisodiy manfaatdorlikni ta'minlashdan iborat. Demak, turistik biznes bilan shug'ullanishni istaydigan davlat organlari, qo'riqxonalar hududlari ma'muriyati, ilmiy jamiyatlar va agrar hududlardagi loyiha ishtirokchilari bundan xabardor bo'lishlari shart. Xalqaro loyihalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, xo'jalik faoliyatlari avvalo tabiiy boyliklardan foydalanishni me'yorga solishdan iborat bo'lgan qo'riqxonalar hududlari ma'muriyati va tabiatni qo'riqlash bo'yicha mutaxassislar bunday yondoshuvga ya'ni tijoratlashuvga ko'nikib qolmasliklari kerak. Daromad olish va shu yo'l bilan aholi turmush darajasini yaxshilashga urinish agrar hududlarni rivojlantirish loyihalarida iqtisodiy foyda nuqtai nazaridagina yondoshish hollari ko'proq uchramoqda. Loyihalarda asosiy e'tibor tirikchilik vositalari bilan ta'minlashga shuningdek, mahalliy bozorlarga xizmat ko'rsatishga qaratiladi. Agar shu nuqtai nazardan yondoshilsa faqat ekoturizm butunlay boshqa istiqbolni ko'zda tutadi. Ana shu faoliyat bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchilik agrar hududlarida hech qanday xususiy barqaror model mavjud emas. Shu bilan birga ularning hali shakllanish bosqichida ekanliklarini ham hisobga olish lozim. Bunda mamlakatning o'ziga xos tomonlarini iqlimi, tabiati, resurslari, milliy mentaliteti, moddiy bazasi, qonunlarini ham ko'zda tutish zarur. Turizmga, uning tashkiliy shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar iqtisodiy tizim sifatida qarash lozim.

Turistning xohishidan va bor imkoniyat-tabiiy muhit, diqqatga sazavor ob'ektlar, iqtisodiy muhitdan kelib chiqib, firmalar turistik mahsulotlar ro'yxatini ishlab chiqadi va bozorlarga taklif etadi. Davlat esa soliq va bojxona siyosati, kreditlar va grantlar, mutaxassislar tayyorlash, investisiya orqali ularni rag'batlantirib boradi. Chunki hukumat turizmga iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri, soliqlar orqali byudjetga mablag' tushiradigan va ish bilan bandlikni, xalqaro munosabatlarni yaxshilaydigan yo'nalishlardan biri sifatida qaraydi. Ekologik boshqa omillar bilan bir qatorda turizm sohasining muhim omillari jumlasiga kiradi. Ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy xalq yoki biron bir muayyan manfaatdor guruhning o'zaro hamkorligi maqsadga muvofiq (optimal) nisbatda bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, eng avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy ishtirokni yoki hamkorlikni farqlab olish kerak.

Siyosiy ishtirok yoki hamkorlik deganda turizmni rivojlantirish sohasida, ekologik turizm bo'yicha qo'riqxonalar hududlariga doir xalqaro (qo'shma) qarorlar qabul qilishda ishtirok etish tushuniladi. Shu maqsadda qo'riqxonalar hududlarining mahalliy maslahat kengashlari, ekoturizmni rivojlantirish hay'atlarini tuzish va ularning faoliyatini jonlantirish lozim. Iqtisodiy ishtirok deganda ekoturizmdan iqtisodiy samara olishda qatnashish tushuniladi. Bu mahalliy atoli turistik biznesda mustaqil qatnashishi shart degani emas. Iqtisodiy ishtirok boshqacha tarzda amalga oshirilishi ham mumkin. Masalan, tabiatdan bahramand bo'lganligi yoki ob'ektlardan foydalanganligi uchun kompensasiya sifatida qo'riqxonalar hududi ma'muriyati hisobiga ekoturizmdan tushgan daromadlardan ulush o'tkazib turish, foydalanish huquqini mahalliy boshqaruv organlaridan chet el turistik kompaniyalariga olib berish yoki ijaraga berish, oziq- ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, hunarmandchilik buyumlari bilan ta'minlash, mustaqil tadbirkorlik faoliyatida qatnashish, professional turistik kompaniyalari bilan hamkorlikda qo'shma yig'inlarni tuzish va boshqalar nazarda tutiladi.

O'zbekistonga turistik yoki xususiy yo'nalish bo'yicha tashrif buyuruvchi shaxslarni kamida 10% o'z sayyohatlarining ekologik jihatlari bilan qiziqadi: ular yoki tabiiy hududlar (bog'lar, tog'lar, o'rmonlar, ko'llar) ga tashrif buyurishadi, yo bo'lmasa, yaqinroq qishloq joylarga bir kunlik ekskursiya qilishadi. Ularning kamida 60 % aralash turga ehtiyoj sezishadi, xususan, etnografiya bilan etofogiyaga qiziqishadi.

Natijada tashkiliy turistlar etofogik turlarga "ixtisoslashishmoqda". Shunday qilib turizmning yangi shakli-ekologik turizm shakllanmoqda. Ekologik turizmning umumiy turizm bozoridagi aniq o'rnini ko'rastirish qiyin, albatta. Ko'pincha uni boshqa turistik xizmat turlaridan ajratish qiyin. Ekoturizmdagi bu yangi yo'nalish hissasining hali juda pastligi aniq. Bu sohaning nisbatan kam o'rganilganligi va istiqbolli ekanligi uni nazariy ilmiy tahlil etishning dolzarbligini ko'rsatadi. Bundan tashqari mehmonxona, kemping va sport inshootlarini loyihalashda ekologik omillar ta'sirini hisobga olish, velosipedlar va ot- ulov ijarasini tashkil etish, golf maydoni va boshqa sport ob'ektlari qurishda landshaftlarni asrash, qirg'oq maydonini muhofaza qilish, me'morchilikni turar joy manziliga moslash, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, chekka joylarda avtobekatlar qurish, shahardan tashqari jamoat transporti yo'llarini qurish va ta'mirlashni rejalashtirishda ekologiyani hisobga olish va boshqalarni ham nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Buxoro viloyatining imkoniyatlarini ochib beruvchi yangi marshrutlar. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy potentsiali nafaqat sanoat korxonalarining soni, uning maxsuloti bilan balki mamlakatning tabiati, dam olish maskanlari, tarixiy arxitektura obidalarining xolati bilan bog'liqligi so'nggi yillarda sezila boshladi. Bu esa xalq xo'jaligi tarkibida eng jadal suratlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasining tarkibiy qismidir. Shundan

bo'lsa kerak, so'nggi yillarda Butunjaxon turizmga a'zo bo'layotgan kishilar soni oldingi yillarda salkam 10%ga ortganligi, yoki 2014 yilda turistik xarakatlarga 760 mln kishini birlashtirganligi ma'lum. Bizga ma'lumki 2012 yilda Yooxannsburg shaxrida bo'lib o'tgan Barqaraor rivojlanish Butunjaxon Sammitida qabul qilingan muhim xalqaro xujjatlardan biri "Barqaror rivojlanish Butunjaxon Sammiti qarorlarini bajarish rejasi"ning 4-bo'limi 24-26 moddalarida milliy davlat chegarasida va uning tashqarisida atrof-muhitni turizm orqali muxofaza qilish masalasi ko'tarildi. Yoki "Xalqaro turizm yili", "Xalqaro madaniy meros yili" yiliga bag'ishlangan anjuman va uchrashuvlar, Kvebek deklaratsiyasi va Butunjaxon turizm tashkilotining "Global turizm etikasi turizmning eng ommaviylashgan shakli bo'lgan ekoturizmni rag'batlantirish zarurligi ta'kidlab o'tildi va tegishli qarorlar qabul qilindi. Shunday ekan katta va boy iqtisodiy potentsialga ega bo'lgan mamlakatimizda xam bu borada sezilarli ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Sobiq ittifoq davrida mamlakatimizdagi boy tabiiy va tarixiy yodgorliklar uzoq yillar davomida nafaqat chet-ellik mexmonlarga, balki maxalliy xalq e'tiboridan chetda saqlanib kelindi. Qimmatbaxo tarixiy obidalarimiz eskilik sarqiti deb talqin qilish urf bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda olib borilgan dono siyosat tufayli, turizmning xilma-xil ko'rinishlari qatori ekologik turizm soxasi taraqqiyot yo'liga tushib borayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Ekoturizm orqali mamlakatimizga tashrif buyurgan mexmonlar yurtimizning boy va betakror tabiati, uning xilma-xilligi, tarixiy ananalar, urf odatlar bilan tanishish jarayonida mamlakatimizda olib borilayotgan odilona siyosat, xalqimiz farovon xayoti xaqida yanada kengroq tasavvurga ega bo'ladi. Zero mamlakatimiz o'zining turistik resurslar saloxiyoti bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlardan birini, dunyoda yuqori o'rinlarni egallagan 15 mamlakatlar orasida ekanligini ta'kidlash lozim. Respublikamiz xududida turli tarixiy davrlarda kashf etilgan 4000 dan ortiqroq arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklar mavjud. Shuningdek, mamlakatimizning turistik jozibadorligini oshiruvchi yana bir jixati, bu uning ekzotik tabiati, boy lanshafti, xayvonot va o'simlik dunyosining rang- barangligidir. Bugungi kunda mamlakatda muxofaza olingan tabiiy xududlar ekologik turizmning asosiy bo'g'ini xisoblanadi.

Buxoro viloyati o'zining boy tabiiy va tarixiy obidalari bilan uzoq yillardan beri dunyo ahlini o'ziga jalb qilib qilayotgan ko'hna va navqiron shaxarlardan sanaladi. Viloyatning tarixiy va madaniy yodgorliklari mingdan ortiqligi adabiyotlarda qayd etiladi. Ushbu yodgorliklarning kattagina qismi YuNESKOning butundunyo madaniy va tabiiy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shundan bo'lsa kerak Buxoro viloyatini "osmon ostidagi muzey" shahar deb ham atashadi. Bir necha asrlardan beri Buyuk ipak yo'li o'tgan muqaddas Buxoro, nafaqat ilmiy-tafakkur va ma'naviyat, xunarmandchilik va savdo sotiq markazi, balki yaxshi niyatli insonlarga mexmondo'st yurt bo'lib tanildi. Viloyatga har yili uzoq va yaqin xorij mamlakatlaridan savdogarlar va tadbirkorlar,

muqaddas qadamjoylarni ziyorat qilish va noyob arxitektura yodgorliklarni tomosha qilish xamda sharqning sirli tarixini o'rganish, o'ziga xos madaniyati bilan yaqindan tanishish uchun ko'plab sayyohlar tashrif buyurishadi. Yuqorida qayd etilganidek, viloyatimiz tabiati juda serqirra imkoniyatlarga ega. Biz tavsiya etmoqchi bo'layotgan yana bir ekoturistik yo'nalish bu viloyatimizning shifobaxsh maskanlari sanaladi. Chunki ushbu yo'nalishlar bir-biridan birmuncha uzoq masofada joylashganligi, maskanlarga boradigan yo'llarning xalqaro andozalarga to'liq javob bermasligi, ushbu maskanlar tevaragida turli servis- xizmat imkoniyatlarining xozircha yuqori darajada tashkil etilmagan. Bunday nuqtalar sifatida Xo'jjaubbon qadamjoyi – Xo'jjazafaron qadamjoylari - Buxoro tumanidagi Issiq suvi –og'itma ko'li yaqinidagi Issiq suv - Olot tumanidagi qum va tuz ko'llari. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ushbu imkonitlarning ko'pchiligi xozirgi kunda maxalliy aholi tomonidan foydalanilib kelinmoqda, ammo ushbu joylarga tashrif buyuruvchilarning dam olish imkoniyatlarini yanada yaxshilab, turli servis-xizmatlarini turli ko'rinishlarini tashkil etish orqali chet -ellik sayyohlarni ushbu soxada jalb etishga erishilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu kabi sayoxat marshrutlarini viloyatning shimoliy yo'nalishida qizilqum qo'riqxonasiga xam tashkil etishimiz mumkin .

Xulosa qilib aytganda ekologik turizm daromad keltirishi, bandlikni yaxshilash va shu yo'llar bilan mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashdan tashqari tabiatni muhofaza qilish maqsadlarini ham e'tiborga olish lozim. Ekologik toza yuvish vositalaridan foydalanish, suv va energiyani tejash, ichki tartibning mahalliy strukturaga mosligini ta'minlash, ekologik toza qurilish materillarini qo'llash, maishiy, mahalliy mahsufotlar bilan bevosita ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish orqali qo'llash, mavsumiy oziq-ovqat mahsulotlarini konservasiyalash va ikkilamchi ishlatish, biologik usullarda etishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, ekologik moslashgan takliflar berish, muhofazadagi o'simliklar va xayvonlarni ko'rsatish, bilim va estetik jihatdan qiziqarli tabiat manzaralarini taklif qilish, mehmonlar uchun tabiatni mutofaza qilish musobaqalarini o'tkazish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Nig'matov, N. Shomurodova - Ekoturizm asoslari - T: Toshkent- Iqbol2007
2. Pardayev A., Norchayev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. -T: TDIU 2010. -320 bet.
3. Murodxon Xoshimov. O'zbekiston ekologik turizmi-monografiya-2009y
4. Tuxliyev N., Abdullayeva T. Ekologicheskiy turizm: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.–biznese. Uchebnoe posobie. - M: KNORUS. 2005. - 192 s.
5. Zdorov A.B.Ekonomika turizma -M: Finansy i statistika. 2004. -266 s.
6. Norchayev A. Xalqaro turizm. O'quv qo'llanma.-T.:TDIU.2007. - 235 b.
7. Yegorenkov L.I. Ekologiya turizma i servisa. – M.: FiS, 2003 g.
8. S.A.Soliyev, M.R.Usmonov. Turizm geografiyasi. Samarqand,2005 g.

9. M.Xoshimov, V.I.Kucheryavix. Tabiatning nodir sayrgohlari. Toshkent, "Mehnat", 1991 g.
10. A. Nigmatov, N. Shomurodova- Ekoturizm asoslari - T.: Toshkent- Iqbol. 2007
11. Shukurova, I. B., Rakhmonov, R. R., Ganiyeva, M. A., & Hayitova, S. (2022). "JAYRON" EKOLOGIK MARKAZIDAGI HAYVONLAR BIOLOGIYASI EKOLOGIYASI VA ULARNI MUHOFAZA QILISHDAGI O'RNI.
12. Raxmonov, R. R., No'monov, Q. X. O., Samadova, I. Sh., & Oripova, Yu. S. Q. (2023). O'ZBEKISTONDA OVCHILIK SOHASINING RIVOJLANISH TARIXI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 372-382.
13. Raximovich, R. R., Hamzayevich, B. A., & Umedjonovna, I. S. (2023). ZARARLI SUTEMIZUVCHILARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA TABIATDAGI AHAMIYATI. IQRO JURNALI, 2(1), 537-544.
14. Raxmonov, R. R., Samandarovna, Q. D., & Norova, D. X. (2022). BUXORO VILOYATI SUV HAVZALARIDA UCHRAYDIGAN NODIR VA KAMYOB BALIQXO'R QUSHLAR BIOLOGIYOSI VA EKOLOGIYASIGA DOIR MA'LUMOTLAR. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1, 28-34.

Internet saytlari

1. <http://www.tourism.com/>
2. www.world-tourism.org
3. <http://www.ecocenter.uz/uz>
4. <http://www.travelgroup.ru/ecotourism> <http://www.geographia.com/>
5. www.uzbektourism.uz